

PEDAGOGIK MAHORATNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI ROLI

Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevna

Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahoratning ta'lim tarbiyajarayonidagi roli yoritiladi. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik mahoratning ta'lim tarbiyajarayonidagi rolining didaktik imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qituvchi; didaktik; muammo; tadqiqot; faoliyat; mahorat, qobiliyat, integrativ funksiya; tizimlashtirilgan; ma'lumotlar; ta'lim mazmuni; imkoniyatlar; qiziqish; faoliyat.*

Аннотация: *Данная статья знакомит будущих учителей с профессиональной деятельностью. Освещено решение проблемы интегративного подхода к подготовке. Выделены дидактические возможности интегративного подхода в подготовке будущих учителей технологического образования.*

Ключевые слова: *учитель; дидактический; проблема; исследовать; активность; интеграция; интеграция направления; интегративная функция; систематизировано; информация; образовательный контент; возможности; интерес; активность*

Abstract: *This article introduces future teachers to professional activities. The solution to the problem of an integrative approach to preparation is highlighted. The didactic possibilities of the integrative approach in the training of future technological education teachers are highlighted.*

Keywords: *teacher; didactic; problem; research; activity; integration; integration directions; integrative function; systematized; information; educational content; opportunities; interest; activity*

Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi nutqining ravon va ta'sirchan o'tilayotgan mavzuga o'quvchi diqqatini torta oladigan, mavzuga mos ko'rgazmalar ijod qilib va undan unumli foydalana oladigan, har qanday sharoitda ham o'quvchi qalbiga yo'l topa oladigan, har bir dars bolaning qiziqish va faoliyatini oshira oladigan kishini tushinamiz.

Pedagogik mahorat – izlanish va ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat tushunchasiga ta'rifni “Pedagogik entsiklopediya”da quyidagicha” Tarbiya va o'qitish yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi san'at bo'lib, bolaga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevadigan har bir o'qituvchining qo'lidan keladigan ish”. – deb izohlaydi.

O'qituvchi pedagogik mahorati quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. Pedagogning o'z fikrini, iloji boricha, sodda, ravon va etarlicha to'lalikka talim oluvchiga etkaza olishi va boshqa omillarga bog'liq bo'lgan o'qitish ishlarini bajarishi zarur;
2. Darsni tashkil qilishda talim oluvchining bilim darajasi, ularning taqdim etilayotgan bilimlarni qabul qila olish mahorati va intilishini hisobga olgan holda ma'ruza, seminar va x.o. tayyorlangan bo'lishi va nihoyat muallimning talim oluvchilarni o'zi bilan bir xilda intilib borishini- bir fazada ishlashini tashkil eta olishi;

3. O'qitish metodlari, usullarini har tomonlama egallagan bo'lishi;
4. O'qituvchi salohiyati o'tilayotgan fan yo'nalishida ishni aniq va samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan pedagogik talabga javob berishi, fanning tarkibiga kiruvchi maxsus bo'limlar yuqori darajada egallangan bo'lishi va o'z xarakterlariga javobgarlikni bilishi;
5. Pedagog o'z darsi davomida o'quvchilarda o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan qoniqish xosil qilishiga erisha olishi va o'zi tuzgan dars rejasining to'g'riligi haqida ishonch xosil qilib o'z ustida yanada yaxshiroq ishlashga intilishi;
6. Pedagog mahoratni egallashi uchun tarbiya berish qonunlarini, tamoyillarini va ularning tarkibiy qismlarini bilishi zarur, ya'ni har bir aniq xolat uchun o'qitish metodini tanlash, jarayoni berilgan daraja va sifatida loyihalashni bilishi;
7. Xar qanday sharoitda ham o'quvchilarning etarli tarbiyalanganlik darajasi, rivojlanishi va zaruriy bilimlariga ega bo'lishiga erishishi;
8. Pedagog talabaning har qanday savoliga javob topishi, unda qoniqish hosil qilishi zarur. Bunga erishish uchun muallim o'z fanini chuqur bilishi uning rivojlanish istiqbolini ko'ra bilishi kerak;
9. Dars o'tish san'ati o'tilayotgan mavzuni undan oldingi va uyga berilgan mavzular bilan bog'langan holda talabalarning faolligini oshirish orqali chuqur o'zlashtirishga erisha olishi;
10. Pedagogning o'quv jarayonida samarali tarbiyaviy ish olib borishi, yuqori ma'naviyat va vatanparvarlik tuyg'ulari, hamda mehnatsevarlikni shakllantira olishi zarur;
11. Talabalarni o'tilayotgan mavzuga jalb qilib, ularning faolligini oshirish va qobiliyatlarini mustahkamlash asosida ularni ilmiy jihatdan rivojlantirishga erisha olishi;
12. Pedagogning vazifasi o'quv jarayonida ijobiy tuyg'ularni yaratish yo'lini topishi va o'quvchilar bilan birgalikda fikr yuritib va o'quv muammosining echimini izlashda muvaffaqiyatga erishsalar, unda pedagog darsni to'g'ri tashkil qilgan, deb baholash mumkin;
13. Muallim tomonidan o'tkaziladigan har bir mashg'ulot talabalardan taxlilni, materialni qismlarga ajrata olishni, taqqoslash asosida ular orasidagi bog'liqlikni xosil qilishga o'rgatish va boshqalardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik mahorat - bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik maqsadning o'ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

- pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

- pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, anna shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilishi ham o'z-o'zidan kelaveradi».

- pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun

ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatini mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

- shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarini «o'sib» uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;

- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;

- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

- pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

- inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida xususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir.

Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir.

U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

1. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

2. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. SHuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy o'qituvchidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. SHu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. SHuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

“Pedagogik mahorat” bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga yega. 1987-1997 yillardagi ilmiy yondashuvlar bu favqulodda hodisaga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga

imkon berdi:

Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

- loyihalash;
- konstruktsiyalash;
- tashkilotchilik;
- muloqot;
- bilish va reflektivlik.

Keyingi yillarda pedagogik mahorat kategoriyasiga nisbatan yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Pedagogik mahoratning an'anaviy izohlaridan bir qadar chekinish ham yuz berdi (I.A.Zyazyun, N.V.Kuzmina, VASIastenin).

Pedagog tadqiqotchilarning Sankt-Peterburg maktabi, pedagogik mahoratni kishining alohida holati - ya'ni uning kasbiy mashg'uloti keng ma'noda kishilar bilan ishlashning o'ziga xos sohasi bo'lgan pedagogika hisoblanadi, deb tavsiflaydi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir.

Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar yekan, demak, u yetarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini yegallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok yeta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi hamda maqsadga muvofiq faoliyatni konstruksiyalashni osonlashtiradi.

Bilimdonlik o'qituvchi uchun o'ta muhim bo'lgan uchta holat bilan bog'langan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallashni taqozo etadi:

- odamlar bilan o'zaro aloqada bo'lishda, madaniy muloqatda bo'lish;
- fani sohasi bo'yicha axborotlarni qabul qila bilish va uni o'qitish mazmuniga tnoslab qayta ishlash va undan mustaqil tahsil olishda foydalana olish;
- o'quv axborotlarini boshqalarga bera olish.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan xarakterlanadi:

- shaxsga, insonga yo'nalganlik;
- pedagogik voqelikni izchil idrok etish;
- fan sohasiga yo'nalganlik;
- pedagogik texnologiyalarni egallash.

Hozirgi ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik bilimdonlik yana uch komponent bilan to'ldiriladi:

- bilimdonlik, umuman, o'z faoliyatini jahon pedagogik madaniyati darajasida ishlab chiqilgan tajribalar asosida tashkil yetish qobiliyati hamda unga va vatanimizdagi pedagogikaga integrasiyalasha olish;

- (o'z safdoshi tajribasi va innovatsion tajribalar bilan o'zaro samarali munosabat o'rnatish qobiliyati;

- o'z tajribalarini wnumlashtirish va boshqalarga bera olish malakasida namoyon bo'ladi.

Pedagogning kasbiy bilimdonligi kreativlik bilan xarakterlanadi.

Kreativlik - bu kasbiy hayot usuli, ko'p qirrali ta'lim jarayoni va tizimining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari sathida yangi pedagogik voqelikni yaratish istagi va malakasidir. Kreativlik o'qituvchiga innovatsion o'zgarishlar oqimiga moslashib olishiga yordam beradi.

Har qanday darajadagi kasbiy bilimdon pedagogik refleksiya qodirdir.

Refleksiya - fikrlashning maxsus usuli bo'lib, pedagogik voqelikka, tarixiy-pedagogik tajribaga, muayyan kasbiy mavqening tashuvchisi bo'lgan o'z shaxsiyatiga qayta nazar tashlashdir.

Yuqoridagi kasbiy-pedagogik bilimdonlikni tashkil yetuvchi barcha komponentlar murakkab tuzilmani hosil qilib, mutaxassisning «ideal modeli»ni shakllantira boradi va pirovard natijada zich birlashib ketadi hamda o'qituvchi shaxsi faoliyati tavsifini belgilaydi.

Bilimdonlik faqat faoliyat jarayonida va faqat konkret kasb doirasida namoyon bo'ladi va baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yil “ strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni » 2020 y.

3. Boymurodov N. “Amaliy psixologiya”. Toshkent - 2008 y.

4. SH.S Sharipov. “kasb - hunar ta`limi tizimida o`quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya .T.2005.

5. O`.Q.Tolipov.Sh.S.Sharipov “O`quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari” qo`llanmasi T.2012.

6. N.Muslimov.SH.SHARIPOV. “Texnik ijodkorlik va dizayn” Toshkent 2007.

7. Ganobolin F. N. “Psixologiya”. Toshkent - 1976y.

8. Ahmedov, M. M., Hojkarimova, G. T., & Rahmatullayeva, H. B. (2021). INTERFAOL O'QITISH-INNOVATSIYA SIFATIDA. Scientific progress, 2(3), 101-107.

9. Ахмедов, М.М., & Хожикаримова, Г. (2021). ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ШАКЛЛАРИ. Scientific progress, 2(3), 94-100.

10. Hojkarimova, G.T., & Merganova, U. M. (2021). YOSHLARNI KASB TANLASHGA UNDOVCHI TA'SIRLAR. 18June, 2021, 58.
11. Teshaboyev, Z., Ahmedov, M., & Hojkarimova, G. (2021). TALIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR. ГРААЛЬ НАУКИ, (4), 475-477.
12. Ахмедов, М., & Ходжикаримова, Г. (2021). Ўқитишнинг сифати ва таълим-тарбия самарадорлигини оширишда инновацион характерга эга бўлган инновацион дарс шаклларидан фойдаланиш. Общество и инновации, 2(2), 1-7.
- 13 Hojkarimova, G., Safarova, G., & Razzoqov, B. (2021). TA'LIM JARAYONIDA KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV. Збірник наукових праць SCIENTIA.
14. Hojkarimova, G., & Safarova, G. (2020). O'QUVCHILAR UZDORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI. Збірник наукових праць ЛОГОС, 56-58.
15. Mamadalyevich, A. M. (2021). Fundamentals Of Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Training. The American Journal of Applied sciences, 3(01), 54-57.
16. Axmedov, M. M., Hojkarimova, G. T., Boybabayev, R. H., & Safarova, G. M. (2021). Supporting innovative approaches in the education system. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 38-41.
17. Авазбоев, А., & Хожикаримова, Г. (2019). СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. Вестник науки, 5(6), 150-153.
18. Rakhmanovna, P.O., & Tairovna, I.Z. (2023). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TYPES. *Scientific Impulse*, 1(10), 950-955.
19. Парпиева, О.Р., & Хайриллоев, Х.И. (2023). АКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ УЧЕБНЫХ ИГР И СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ВРАЧЕЙ. *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS*, 2(18), 124-128.
20. Парпиева, О. Р., Хожикаримова, Г. Т., & Назирова, А. М. (2021). FORMATION OF STUDENT PEDAGOGICAL SKILLS BASED ON THE REQUIREMENTS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT. *Экономика и социум*, (6-2), 157-161.
21. Parpiyeva, O.R. (2022). TA'LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O'ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI. *ЎЗБЕКИСТОН О'ҚИТУВЧИ*, 2(22), 226-230.
22. Parpiyeva, O.R. (2022). Innovative Educational Technologies, Their Nature, Types And Theoretical Fundamentals. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 123-126.
23. Парпиева, О.Р., & Раззоков, Б.Х. (2022). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 1204-1207.